

Имом Термизий халқаро
илмий-тадқиқот маркази

Буюк термизийлар

Ҳаким Термизий

2



Тошкент – 2021

УЎК 28(09)

КБК 86.38

У-14

[У. Уватов,] Ж. Чўтматов.

Ҳаким Термизий [Матн] : маънавий-маърифий / **[У. Уватов]**,
Ж. Чўтматов. – Тошкент : Shamsuddinxon Boboxonov, 2021. –
104 б.

Масъул муҳаррир:

[У. Уватов] – тарих фанлари доктори, профессор
Тақризи:

Ш. Умаров – тарих фанлари бўйича
фалсафа доктори (PhD),

Иномон Термизий
халқаро илмий-тадқиқот маркази директори

Уибу рисолада буюк ватандошимиз, машҳур мутасаввиғ олим, муҳаддис ва ҳофиз имом Ҳаким Термизий ҳақида қиммматли маълумотлар тўпланган. Рисола мактаб ўқувчилари ва кенг китобхонлар оммасига мўлжалланган.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Дин ишлари бўйича қўмитанинг 2020 йил 18 мартағи 2058-сонли хulosаси асосида нашрга тайёрланди.

ISBN 978-9943-12-630-5

©**[У. Уватов,] Ж. Чўтматов, 2021**
“Shamsuddinxon Boboxonov” НМИУ, 2021

Мундарижа

Сўзбоши	4
Ҳаким Термизий	6
Алломанинг исми-шарифи	6
У зот ким бўлган?	6
Қачон ва қаерда туғилган?	7
Ота-онаси ким бўлган?	8
Ҳаким Термизийнинг ёшлиги	9
Илм йўлидаги сафарлари	12
Ҳаким Термизийнинг устозлари.....	14
Ҳаким Термизийнинг шогирдлари.....	16
Ҳаким Термизийнинг асарлари.....	17
Ҳаким Термизий асарларининг бош фояси	25
Хулоса	40
Ҳаким Термизий мероси ва мустақиллик	42
Ҳаким Термизий ўгитларидан намуналар	46
Фойдаланилган адабиётлар	51

Сўзбоши

Маълумки, тарихда Мовароуннаҳр деб аталган ўлкамиз олиму фозиллар юртидир. Бунга тарихий манбалардаги тегишли қайдлардан ташқари, юртимиздаги минглаб қўл-ёзмалар ҳам бевосита далил бўла олади. Мана шу олимлар орасида термизий алломалар ҳам ўз ўрнига эга.

Тадқиқотлар шуни кўрсатмоқда-ки, ўрта аср араб ва форс тилидаги тарихий манбаларда қайд этилган Термизий нисбасидаги олимлар сони 200 нафарга етади. Келажакдаги изланишлар бу рақамни янада қўпайтириши ҳам мумкин.

Ушбу термизий алломалар, хоҳ диний, хоҳ дунёвий бўлсин, илм-фаннинг турли соҳаларида илмий фао-

лият олиб борганлар. Улар диний илмлар соҳасида тафсир, ҳадис, фиқх, яъни Ислом ҳуқуқий меъёrlари, тасаввуф каби йўналишларда, дунёвий билимлар борасида эса астрономия, математика, табобат, зоология, адабиёт каби соҳаларида пешқадам бўлишган. Бу олимлар нафакат Термизда, балки ўша давр Ислом оламида илмий марказ саналган кўплаб шаҳарларда фаолият юритганларини таъкидлаш лозим.

Булар орасида Ислом дини асосларини чукур англаб, дин ва дунё билимларини уйғунлаштирган ҳолда улуғ донишмандлик – ҳикмат илмida пешволикка етишган ва “Ҳаким” номи билан танилган Муҳаммад Ҳаким Термизий алоҳида ўрин тутади.

*Ислом дини ривожига улкан ҳисса
қўшган буюк аллома, ватандошимиз
Абу Исо Термизий ва Термизий алло-
маларнинг беназир меросини илмий
асосда чуқур ўрганиши ва халқقا ет-
казиши ўта муҳим ишидир.*

Шавкат Мирзиёев,
Ўзбекистон Республикаси
Президенти

Ҳаким Термизий
(820–932)

Алломанинг исми-шарифи – Абу
Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Али ибн
Ҳасан ибн Бишр ибн Ҳорун Ҳаким
Термизийдир.

У зот ким бўлган? Машхур тасав-
вуф олими, шайх, муҳаддис, ҳофиз,

имом ва ҳаким бўлиб, ақида, тафсир, ҳадис ва тасаввуф ҳақида кўплаб асарлар ёзган етук аллома.

Қачон ва қаерда туғилган? Ҳаким Термизийнинг таваллуди ва вафот этган санаси хусусида манба ва адабиётларда аниқ маълумот келтирилмаган. Аммо аллома ҳаёти ва унинг таълимотини чуқур ўрганган олимлар Ҳаким Термизий 820 йилда Термиз шаҳрида таваллуд топгани, узоқ умр кўриб, 932 йилда 112 ёшида вафот этгани ҳақида хулоса қиласидилар. Унинг мақбараси Термиз шаҳри яқинидаги Амударё бўйида жойлашган.

Ота-онаси ким бўлган? Муҳаммад Ҳаким Термизийнинг отаси Али ибн Ҳасан ибн Бишр Термизий ўз даврида ҳадис илмининг қўзга кўринган олимларидан бири бўлган. У олим сифатида Балх, Бағдод, Куфа, Басра, Макка ва Мадина каби шаҳарларда фаолият юритган.

Ҳаким Термизий “Ал-радд ъалал муаттила” (“Муаттила оқимиға раддия”) китобида онасидан ҳадис ривоят қиласди. Она тарафидан бўлган бобоси ҳам ҳадис ровийларидан – уни нақл этувчи олимлардан эди.

Бу маълумотлар шуни кўрсата-дики, Ҳаким Термизий илм ва маъ-

рифатли хонадонда вояга етди ва бу унинг келажакда катта олим бўлишига мустаҳкам асос бўлди.

Алломанинг ўз таржимаи ҳолига оид “Будувву шаън Абу Абдуллоҳ Мұхаммад Ҳаким Термизий” номли асари ва бошқа манбалардан маълум бўлишича, у зот солиҳа аёл билан турмуш қурган ва олти нафар фарзанди бўлган.

Ҳаким Термизийнинг ёшлиги. Ёшлигига вақтдан унумли фойдаланиб, бехуда машғулотлардан четлангани у зотнинг буюк инсон бўлиб этишишида жуда муҳим ўрин тутган. Буни алломанинг қуидаги сўzlаридан билиш мумкин:

“Ишимнинг бошланишида исми барокатли Аллоҳ таоло мен учун шайхимни (устозимни, Аллоҳ у зотни раҳмат қиласин) ҳозир қилди. Саккиз ёшга етганимда, у зот мени илм ўрганишга ундади, унга қизиқтириди ва буни мен учун оғирликда ҳам, енгилликда ҳам (яъни, ҳар қандай ҳолатда) одатга айлантириди. Ҳатто, бу мен учун доимий одатга ва ёшлик вақтимдан ўйин-кулгининг ўрнини босувчи ишга айланди. Шу туфайли мен ёшлигимдан илм ал-осор (ҳадис илми) ва илм ар-рай (шариат қонун-қоидаларига оид илм)ни эгаллашга эришдим”.

Кейинчалик илм йўлида сафарга чиқиши ният қилган ёш Муҳаммад маълум вақт бунга имкон топа олмайди, аммо ўзининг юксак одобахлоқи, инсоний фазилатлари натижасида улуғ даражага эришади. Фаридуддин Аттор “Тазкират ул-авлиё” асарида Ҳаким Термизий ҳақида шундай ҳикоя қиласи: «Дарҳақиқат, Шайх Термизий умрининг аввалида икки шериги ҳамроҳлигига илм талабида сафарга чиқиши ният қилиди. Шу аснода онаси касал бўлди ва унга деди: “Эй ўғилчам, мен бир заифа аёлман. Сендан бошқа қаровчим ҳам, ёрдамчим ҳам йўқ. Агар

кетадиган бўлсанг, унда мени кимга топширасан?”. Бу сўзлар унга таъсир қилди ва сафардан қолди. Унинг икки шериги эса йўлга чиқиб, сафарга кетишиди».

Илм йўлидаги сафарлари. Ҳаким Термизий 27 ёшга етганда илм йўлида сафарга чиқиш имкони туғилади ва бу ҳақда алломанинг ўзи шундай ёзади: “Қачонки ёшим йигирма етти ёки шунга яқинлашганда кўнглимга Аллоҳнинг Байтул Ҳаромига бориш иштиёқи тушди. Вақти келиб, мен учун сафар қилиш имкони пайдо бўлди. Сўнг ҳадис илми талабида Ироқда турдим, ундаги

Басра шаҳрига бордим. Сўнг ражаб ойида Маккага йўл олдим. Шаъбон ойидан маълум вақт ўтгач, Маккага етиб келдим. Аллоҳ ҳаж вақтигача унда туришимни насиб этди. Туну кун мултазам¹ ёнида мен учун дуо эшигини очди. Қалбимга ҳаққи-рост тавба қилиш ва каттаю кичик айбу гуноҳларни тарқ этиш истаги тушди. Ҳаж ҳам қилдим. Сўнг қайтдим, дарҳақиқат, қалбим нелигини англаған эдим”.

Унинг бу муқаддас шаҳарга сафари Басра ва Бағдод орқали бўлиб, йўл давомида муҳаддис олимлардан

¹ У Каъбай шарифнинг ҳажарул асвад билан эшиги ўртасидаги жой бўлиб, дуо қилинадиган хос ўринлардан биридир.

ҳадислар эшитади ва эшитган ҳадисларини ёдлаб, ёзиб боради, илмий мажлис ва мунозараларда ҳам иштирок этади. Аллома дунёқараши шаклланишида она шаҳри Термиз билан бир қаторда, Балх, Марв, Нишопур, Басра, Куфа, Бағдод, Макка ва Мадина шаҳарлари ҳам муҳим ўрин тутган.

Ҳаким Термизийнинг устозлари. Ҳаким Термизийнинг илмга бўлган қизиқишида биринчи устози – отаси Али ибн Ҳасаннинг хизматлари бениҳоя катта бўлган. Аллома Термиздаги етук олимлардан тафсир, ҳадис ва фикҳ илмларидан

сабоқ олади. У ўзининг энг йирик асари бўлган ва бир ярим мингдан ортиқ ривоятларни жамлаган “Наводир ал-усул фий маърифати аҳадийс ар-Расул” (“Пайғамбар ҳадисларини англашнинг нодир усуллари”) китобида 206 ҳадисни отаси Али ибн Ҳасан Термизийдан ривоят қилгани диққатга сазовордир. Юқорида келтирилганидек, унинг онаси ҳам илк устозларидан бўлган.

Муҳаммад Ҳаким Термизий Абу Туроб Нахшабий, Аҳмад ибн Хизравайҳ Балхий, Яҳё ибн Муоз Розий каби тасаввуф намояндаларидан, Қутайба ибн Саид Балхий,

Солиҳ ибн Абдуллоҳ Термизий, Со-лиҳ ибн Мұхаммад Термизий, Жо-руд ибн Муоз Термизий, Сүфён ибн Вакий Куфий, Али ибн Ҳужр Марва-зий, Ризқуллоҳ ибн Муса Бағдодий, Абдулворис ибн Абдусамад Басрий, Мұхаммад ибн Абдуллоҳ Маккий ва бошқа икки юздан ортиқ олимлар-дан илм ўрганган ва улардан ҳадис ривоят қилған.

Ҳаким Термизийнинг шогирд-лари. Алломанинг Абу Мұхаммад Яхё ибн Мансур Қозий Нишопурий, Абу Мансур Али ибн Абдуллоҳ ибн Холид Зухлий Ҳиравий, Ҳасан ибн Али Жузжоний, Аҳмад ибн Мұхам-

мад ибн Исо, Абу Бакр Муҳаммад ибн Умар Ҳаким Варроқ Термизий (ваф. 320/932) каби шогирдлари бўлган.

Ҳаким Термизийнинг асарлари. Ҳаким Термизийдан бой илмий-маънавий мерос қолган. Унинг асарларининг сони 70–80 та деб кўрсатилади. Эътиборли жиҳати шундаки, уларнинг аксари бизгача етиб келган ва доимий тарзда ўрганилиб, нашр этилмоқда. Бу асарлар араб тилида ёзилган.

Алломанинг қўлёзма асарлари Ўзбекистон мусулмонлари идорасининг кутубхонаси, Абу Райҳон Бе-

руний номидаги Шарқшунослик институти ва жаҳоннинг йирик шаҳарларидаги қўлёзмалар хазиналарида, жумладан, Франция, Буюк Британия, Миср, Сурия, Ливия, Туркия ва бошқа шу каби давлатлардаги қўлёзма фондларида ҳам сақланади.

Ҳаким Термизийнинг асарларидан куйидагиларни келтириш мумкин:

1. Тафсир. Қуръони каримнинг Фотиҳа ва Бақара сурасининг айрим оятлари тафсирига бағишиланган тутгалланмаган асар.
2. “Наводир ал-усул фий маърифати аҳадийс ар-Расул” (“Пайғамбар ҳабарларини билишда нодир усуллар”).

3. “Ал-манҳиёт” (“Қайтарилган амаллар”).
4. “Ал-амсол минал китаб вас сұнна” (“Қуръон ва суннатдаги масалалар китоби”).
5. “Таҳсилу назоир ал-Қуръан” (“Қуръондаги үхшаш калималарни ўрганиш”).
6. “Ал-ҳаж әс-сироруҳу” (“Ҳаж әс-сироруҳу”).
7. “Китаб ас-солат ва мақосидиҳа” (“Намоз әс-сироруҳу”).
8. “Сабаб ат-такбир фис солат” (“Намозда такбир айтиш сабаблари”).
9. “Ал-масайл ал-афина” (“Ноўрин масалалар”).

10. “Ар-радд ъала рофиза” (“Рофи-зий фирмасига раддия”).
11. “Ар-радд ъалал муаттила” (“Му-аттила фирмасига раддия”).
12. “Ал-фарқ байнал аят вал каромат” (“Мўъжиза ва каромат ўртаси-даги фарқ”).
13. “Шарҳ қавл мал иман вал ислам вал иҳсан” (“Имон, ислом ва эҳсон масалалари”).
14. “Ал-калам ъала маъна лаа илаҳа иллаллоҳ” (“Лаа илаҳа иллаллоҳ ка-лимасининг маъноси ҳақида сўз”).
15. “Китаб ал-акйас вал муғтар-рийн”. (“Зийраклар ва алданганлар ҳақида китоб”).

16. “Ал-ақл вал ҳава” (“Ақл ва ҳа-войи нафс”).
17. “Исбат ал-илал фил амр ван-нахъй” (“Шариатдаги буйруқ ва қайтариқ-ларнинг туб мазмун-моҳияти”).
18. “Баён ал-илм” (“Илм баёни”).
19. “Китаб ал-ҳуқуқ” (“Ҳақлар ҳақи-да китоб”).
20. “Баён ал-касб” (“Касблар баёни”).
21. “Жавоб ал-масоил аллати саъала-ху аҳлу Сарахс анҳа” (“Сарахс аҳли сўраган масалаларга жавоблар”).
22. “Ғавр ал-умур” (“Ишларнинг мо-ҳияти”).
23. “Ал-фуруқ ва манъ ат-тародуф” (“Фарқлар ва мутародиф (синони-мия) бўлишни ман қилиш”).

24. “Анваъ ал-маъориф” (“Илм-фан турлари”).
25. “Тарих ал-машойих” (“Машо-йихлар тарихи”).
26. “Будувву шаън Абу Абдуллоҳ Мұхаммад ал-Ҳаким ат-Термизий” (“Абу Абдуллоҳ Мұхаммад Ҳаким Термизий фаолиятининг бошланиши”).
27. “Адаб ан-нафс” (“Нафс одоби”).
28. “Риёзат ун-нафс” (“Нафс риёзати”).
29. “Макр ан-нафс” (“Нафс макри”).
30. “Рисолату кайфийятис сулук ила Роббил ъаламин” (“Оламлар Раббисига олиб борадиган йўлнинг қандайлиги ҳақида рисола’’).

31. “Китаб сифатил қулуб ва аҳвалиҳа ва ҳайъати таркибиҳа” (“Қалбларнинг сифати, ҳолати ва таркибий тузилиши ҳақида китоб”).
32. “Хатм ал-авлиё” (“Авлиёлик чўққиси”).
33. “Баён ал-фарқ байн ас-садр вал-қалб вал фуад вал лубб” (“Кўкс, қалб, фуад ва лубб орасидаги фарқ баёни”).
34. “Маърифат ул-асрор” (“Сирлар маърифати”).
35. “Манозил ал-ибод минал ибада” (“Мўминларнинг ибодатдаги дарожалари”).
36. “Ал-масаил ал-макнуна” (“Яширин масалалар”).

37. “Адаб ал-муридийн” (“Муридлар одоби”).
38. “Илм ал-авлиё” (“Валийлар илми”).
39. “Абваб мухталифа” (“Ҳар хил мавзулар”).
40. “Ал-жумал ал-лазим маърифату-ҳа” (“Билиш лозим жумлалар”).
41. “Жавоб китаб минар Раъй” (“Рай шаҳридан келган мактубга жавоб”).
42. “Ал-ҳикма минал илм ал-батин” (“Ботин илмидан ҳикматлар”).
43. “Сифатул қулуб ва аҳволиҳа” (“Қалблар хусусияти ва ҳолатлари”).
44. “Урс ал-муваҳҳидин” (“Якка Худога эътиқод қилғанлар завқи”).
45. “Урс ал-орифийн” (“Орифлар завқи”).

46. “Китаб ал-аъзо ван нафс” (“Аъзолар ва нафс ҳақида китоб”).
47. “Масоил ат-таъбир” (“Таъбир масалалари”).
48. “Дақоиқ ал-улум” (“Илмларнинг нозик нуқталари”).

Таъкидлаш лозимки, юқоридағи асарларнинг айримлари Қохира, Байрут, Искандария каби шаҳарларда араб тилида нашр этилган, айримлари эса турли тилларга таржима қилинган.

Ҳаким Термизий асарларининг бош ғояси. Ҳаким Термизий асарларининг бош ғояси Ислом динининг асл мазмун-моҳиятини англаш

ва уни инсонларга тўғри асосда етказишидир. Бу масалада эса аллома бир қатор илмий асосланган муҳим ғояларни илгари сурган. Алломанинг тадқиқича, Аллоҳ инсонни ер юзида мавжуд жонзотларнинг энг улуғи қилиб яратган экан, у мана шу даражага муносиб бўлиши лозим. Бунинг учун эса, у, аввало, ўзини, яъни ўзининг ички ва ташқи дунёсини чуқур англаб етмоғи керак. Ислом динининг асосий манбалари бўлган Қуръон ва ҳадисларни қунт билан ўрганиш ҳамда бу икки манбага таянган ҳолда бошқа илмларни яхши ўзлаштириш орқали бунга эришиш мумкин.

Кишининг ўзини англаши мазмуни шундаки, инсоннинг ички дунёси тўрт қисмдан иборат: қалб, ақл, нафс ва рух (руҳий ҳолат). Маънавий камолот йўлидаги энг катта тўсиқ – инсоннинг ўз нафсидир. У инсонни ҳавои, яъни беҳуда хоҳиш-истаклар ва ман қилинган ишлар сари буради, эзгулик йўлидан тўсиб, уни тубанликка тортади. Агар уни тарбия қилиш учун чора кўрилмас экан, у кишини алалоқибат турли фалокатларга йўлиқтириб, ҳалокатга учратади. Шунинг учун у қалб ва ақл ёрдамида тарбия қилиниши лозим. Бу масалада эса аллома инсонни бутун

бошли мамлакатга қиёслайды. Унда бир-бiri билан кураш олиб борувчи қарама-қарши томонлар мавжуд: бир тарафда ҳаво, шаҳват (ҳавойи хоҳиш-истаклар), кибр, очкўзлик каби кучларга эга нафс, бошқа томонда ақл, илм, маърифат, ҳифз (ёд олиш қобилияти), фахм, сакинат (хотиржамлик) каби кучларга эга қалб туради. Бу курашда қайси тараф енгиб чиқса, “инсон мамлакати” ва унинг тахтига эгалик қилади ҳамда инсон руҳияти ғолиб келади. Инсон эса ўз “мамлакати”га нафс ҳукмрон бўлиб олишига йўл қўймаслиги лозимдир. Ҳаким Тер-

мизий ўз асарларида бу курашдаги ғалаба йўлларини, мағлубият сабабларини чуқур таҳлил этган ва инсон илм-маърифат ёрдамида қай тарзда босқичма-босқич камолотга эришини бирма-бир баён этган.

Ҳаким Термизий Ислом тарихида биринчилардан бўлиб маърифат – билиш назариясига асос солган. Кишининг билиш йўлида ўзидағи қалб, нафс, ақл, рух, зеҳн, фаҳм-фаросат, ҳифз (ёдда тутиш) каби омиллардан қай тарзда фойдаланиши мумкинлиги масалаларини бундан ўн икки аср илгари батафсил ёритган. Мисрлик Абдулмуҳсин Ҳусайниний бундан

70 йил муқаддам, яъни 1950 йилда нашр этилган “Ал-Маърифа инда ал-Ҳаким ат-Термизий” (“Ҳаким Термизий наздида маърифат”) номли машҳур тадқиқотини ушбу масалага бағишилаган.

Ҳаким Термизийнинг кўплаб асарларини араб тилида нашрга тайёрлаб чоп эттирган тадқиқотчи Аҳмад Абдураҳим Сойиҳнинг эътироф этишича, бу зот ислом психологияси йўналишининг асосчисидир. Айни дамда бу фикрни искандарилик олим Важих Аҳмад Абдуллоҳ ҳам қўллаб-қувватлаган. Марокашлик тадқиқотчи Идрис Абдуссалом Шоҳидийнинг

бидиришича, Ҳаким Термизийнинг бугунги замонавий психологик билимлар тизимидағи ўрни ва асосчи эканини баҳолаш – соҳа тадқиқотчилари олдида турган муҳим вазифадир.

Ислом тарихида валийлик – авлиёлик назарияси ва амалиётини илк бор тизимли тарзда тадқиқ этиб, кўрсатиб берган зот ҳам айнан Ҳаким Термизийдир. Унинг кўплаб асарларида бу мавзу кенг ёритилганидан ташқари, “Хатм ал-авлиё” (“Валийлар чўққиси”) китобида комил инсон – авлиёлик масаласи чуқур таҳлил этилган. Унда нафакат авлиёлик даражасига

етишиш, балки унинг энг қуи даражасидан энг юқори даражасигача бўлган йўли, уларнинг комил шахс сифатида жамиятдаги ўрни кўрсатиб берилган. Алломанинг қарашларида юксак даражадаги валийлар ўз жамиятларида том маънодаги етакчилик хусусиятларига эга бўлувчи, унинг тараққиётига тенгсиз ҳисса қўшувчи, илм-маърифатли, серқирра шахслар сифатида талқин этилган. Мисрлик олим Абдулфаттоҳ Абдуллоҳ Барака ўз тадқиқотида Ҳаким Термизийнинг валийлик назарияси асосчиси эканини дунё илмий жамоатчилигига асослаб берди. Яна

бир мисрлик тадқиқотчи Муҳаммад Жуюшийнинг фикрича, Ҳаким Термизийдан сўнг бугунги кунгача ким валийлик ҳақида ёзган ёки гапирган бўлса, қай даражада бўлса ҳам, унинг қарашлари таъсирида бўлган.

Ҳаким Термизий яна бир муҳим илмий йўналиш – шариат ҳукмлари ҳикмати ва улардан кўзланган мақсадни ифода этувчи “мақосид аш-шарийъа” (“шариат аҳкомларидан кўзланган мақсадлар”) йўналишининг ҳам асосчисидир. Ўтган асрда қайтадан шакллантирилган бу йўналиш бугунги кунда Ислом динининг асл моҳиятини тушуниш масаласида

ҳам долзарб саналмоқда. Ушбу йўналишни тадқиқ этган, ҳозирда Бутун дунё мусулмон уламолари кенгаши раиси Аҳмад Ройсуний ҳам асарлари ва маъruzаларида Ҳаким Термизийнинг бу соҳада асосчи эканини қайд этди. Чунки алломанинг барча асарларида бу йўналиш ўз ифодасини топгани баробарида, унинг алоҳида китоблари ҳам айнан шу масалага бағишиланган. Ҳаким Термизий ўзининг “Ал-қавл ъала маъна лаа илаҳа иллаллоҳ” (“Лаа илаҳа иллаллоҳ” маъноси ҳақида сўз”), “Ас-солату ва мақосидуҳа” (“Намоз ва унинг мақсадлари”), “Ас-Савм ва асроруҳу”

(“Рўза ва унинг сирлари”), “Ал-Ҳаж ва асроруҳу” (“Ҳаж ва унинг сирлари”) каби асарларида шариат аҳкомларининг асосий мақсад ва ҳикматларини ёритган. Ушбу асарлар Ислом динининг асл мазмун-моҳиятини кенг оммага енгил ва равон тарзда тушунтириб беришда муҳим ўрин тутади.

Марокашлик олим ва шайх Холид Заҳрийга қўра, Ҳаким Термизий инсон таҳлили масаласида уни рамзий маънода “шаҳар” сифатида ва ундан ҳам юксалиб, “мамлакат” тарзида ўрганиш ҳамда алоҳида қисмларини таҳлил этиш даражасига етган.

Ҳаким Термизий ўз давридағи адашган ботил фирмаларга ёзма тарзда асосли раддия бериш йўналишида юртимизда аниқланган энг қадимий асарлар муаллифи ҳамдир. Алломанинг бизгача етиб келган “Ар-радд ъалал муаттила” (“Муаттила – жаҳмийлар тоифасига раддия”) ва “Ар-радд ъалар рофиза” (“Рофизий – шиаларга раддия”) каби асарлари бу соҳага маҳсус бағишлиланган манбалардир. Бошқа асарларида ҳам Термизий фирмаларга раддиялар бериб, энг муҳим жиҳат – фирмаланиш келиб чиқишининг туб асосларини англаш масаласида фикрларини баён қилган.

Ҳаким Термизийнинг Қуръони карим тафсирига бағишлиланган асари ҳам бўлиб, гарчи олимнинг вафоти сабаб якунига етмаган бўлса-да, у юртимиз миқёсида ҳозиргача аниқланган энг қадимги ёзма тафсир сифатида ҳам эътиборга моликдир.

Аллома ўз автобиографик асарида маълум вақт табобат билан шуғулланганини қайд этиб ўтган. Бошқа бир ўринда эса, бундай дейди: “Сўнгра ушбу йилларнинг бирида завол ишини ўлчаш, буржларнинг ишларидан бўлган бу ҳисоб-китобларни ўрганиш ва устурлоб билан машғул бўлдим. Мен бу соҳаларга чукур

хафсала билан киришдим”. Серқир-ра мутафаккир Ҳаким Термизийни дунёвий илмларда психология, табобат, социология (жамиятшунослик), эстетика, ахлоқшунослик ва бошқа ижтимоий-гуманитар фанларда буюк аллома сифатида, диний илмларда муфассир, муҳаддис, факих, Калом илми олими, тасаввуф олими ва муршиди сифатида баҳолаш мүмкін. Мана шу тарздаги кенг қамровли қарашлари, таҳлиллари натижаси ўлароқ, Ҳаким Термизий тарихда исломий йўналишда “Ҳаким”, яъни “Донишманд” номи билан танилган ягона шахсдир. Ҳатто, бу унвон ал-

ломанинг исмидан ҳам устун келиб, у “Ҳаким Термизий” номи билан машҳур бўлишига сабаб бўлган.

Хулоса

Аллома қайси соҳада ижод қилмасин, ўша соҳанинг туб мазмунмоҳиятига етиб бориш учун масаланинг асосий жиҳатлари билан бирга, бир қарашда арзимасдек кўринган, аммо жуда муҳим аҳамият касб этувчи энг нозик нуқталаригача аҳамият берар эди. Зеро, биз атрофимиздаги ҳар бир иш беҳуда эмаслигини ва ҳар бир нарса беҳикмат яратилмаганини билиб турамиз. Лекин уларнинг моҳиятини, нима учун шундайлигини охиригача англаб ета олмаймиз. Ҳаким Термизий ҳар бир нарсани – хоҳ у илм бўлсин, хоҳ Аллоҳ таолонинг бандалари учун яратиб қўйган неъматлари бўлсин, хоҳ шаръий

хукмлар бўлсин, барчасида илоҳий куч-қудрат ва теран ҳикмат мавжудлигини кўрсатиб, бизни ўраб турган дунёнинг сиру асрорларини теран англаб, бошқаларга ҳам англатар эди. Шунинг учун улуғ аллома «Ҳаким», яъни “Моҳиятни англашга интилган донишманд зот” деган шарафли номга мушарраф бўлган. Ҳужвирийнинг келтиришича, уни Термизда “Муҳаммад Ҳаким” деб чақиришларига сабаб, у зот ҳакимия тариқатига асос солгани бўлган. Бу эса юртимизда бизга маълум тариқатларнинг энг қадимийсидир.

Ҳаким Термизий мероси ва мустақиллик. Мустақилликдан сўнг республикамизда миллий қадриятларимиз, муқаддас динимизга оид анъаналарнинг қайта тикланиши халқимиз маънавий-маърифий юксалишида муҳим омиллардан бирига айланди. Мустақиллигимизнинг дастлабки йиллариданоқ миллий ўзликни англаш, маънавий меросни ўрганиш, тадқиқ этиш, ўтмишда яшаб ўтган мутафаккир, алломаларнинг илмий-фалсафий, диний-ахлоқий қарашларидан оммани баҳраманд этиш ғояси ҳаётий заруратга айланди.

Мустақиллик йилларида Ҳаким Термизийнинг ҳаёти ва илмий меросини ўрганиш борасида бир қанча ишлар амалга оширилди. Жумладан,

У. Уватов, И. Усмонов, О. Қориев, М. Исмоилов, Т. Аннаев, З. Чориев, Ж. Мирзаев, А. Шоший, Ж. Чўтматовларнинг бу борадаги хизматлари ни алоҳида эътироф этиш мумкин.

У. Уватовнинг “Ал-Ҳаким ат-Термизий” (2001), “Икки буюк донишманд” (2005), Мирзо Кенжабекнинг “Термиз тазкираси” (2001, 2017), Ж. Мирзаевнинг “Муҳаммад ал-Ҳаким ат-Термизий ҳаёти ва ижоди”, И. Усмоновнинг “Наводир ал-усул” ҳикматлари”, Ж. Чўтматовнинг “Термизнинг безавол қалъалари ёхуд Термиз тарихи”, “Муҳаммад Ҳаким Термизий рисолалари” каби китобларида аллома ҳаёти ва ижодига оид муҳим тадқиқотлар амалга оширилди. Ҳаким Термизий асарларини араб ти-

лидан ўзбек тилига ўгириш ишлари ҳам бошланди. А. Шошийнинг “Манозил ул-ибод мин ал-ибода” (2003), И. Усмоновнинг “Наводир ал-усул” (2007), Р. Абдуллаевнинг “Будувву шаън Аби Абдуллоҳ” (2001–2002) каби рисолалари Ҳаким Термизийнинг илмий-маърифий дурдоналарини ўрганиш борасида дастлабки муҳим босқич бўлди.

Шунингдек, Ҳаким Термизийнинг “Ал-ҳаж ва асроруху”, “Маърифат ул-асрор”, “Ал-акийас вал-муғтаррийн”, “Адаб ан-нафс”, “Риёзатун-нафс”, “Баён ал-касб”, “Масоил аҳли Сарахс”, “Ал-масоил ал-макнуна” каби асарларининг ўзбек тилига таржима қилиниши аллома ижодининг юқори

даражада тадқиқ этилаётганининг яққол исботи бўлди.

Аллома ҳаёти ва илмий меросини хорижда Абдулмуҳсин Ҳусайнӣ, Артур Жон Арберри, Николас Ҳир, Абдулфаттоҳ Абдуллоҳ Барака, Бернд Радтке, Айюб Палмер, Саййид Жумайлий, Аҳмад Абдурроҳман Сойиҳ, Усмон Исмоил Яҳё, Муҳаммад Иброҳим Жуюший, Солиҳ Чифт ва бошқа кўплаб олимлар томонидан ўрганилиб, маҳсус рисолалар ёзилди ҳамда илмий тадқиқотлар олиб борилди.

Ҳаким Термизий ўгитларидан намуналар

Дунёнинг амири – инсон, инсоннинг амири – қалб, қалбнинг амири – маърифат, маърифатнинг амири – Худони танитувчи илмдир.

* * *

Ким ўз нафсини тарбия қилса, нафс ёмон хулқлардан тийиладиган бўлади ва ундаи кишини Парвардигори ёрдам ва мадад бериш билан қўллади. Ўшанда кишининг илми нурли, зулматларни ёритувчи бўлади.

* * *

Ким Аллоҳни яхши кўрса, барча уни яхши кўради.

* * *

Ҳикмат – илмнинг ички тарафи (яъни, мағзи) ва у ҳар бир нарсани ўз ўрнига қўйишидир.

* * *

Жаҳолат нафс хусусияти бўлиб, у зулматдир. Танага нафснинг шахват ва лаззатлари ўрнашса, қалб зулматда қолади.

* * *

Нафс шайтоннинг қуролидир. Шайтон нафс орқали бандани алдайди, васваса қилади ва ҳавойи истакларни инсонга қарши ишлатади.

* * *

Кибрининг асли – қилган ишини катта ва юксак баҳолаб, чиройли бајардим деб билишидир. Унинг иши Ҳақ ва Унинг аҳлидан ўзини катта олишидир.

* * *

Маърифат билан Аллоҳни таниш қалбни нурга тўлдиради. Бу нур эса нафс оловини куйдиради. Изтиробга тушган инсон фақат маърифат билан сокин бўлади. Қалбда маърифат қанча кўп бўлса, нафс ҳам шунча сокин бўлади.

* * *

Ким Аллоҳ таолонинг улуғлигини билса, ўзининг камчиликларини ҳис қиласи. Инсоннинг умидсизликка тушиши ҳам Аллоҳни билмаганидандир.

* * *

Илм – нурдир. Инсонлар Аллоҳ таоло олдида қанчалик масъулиятни ҳис этса, шунчалик маърифатга эга бўлади. Инсон қалби ёвузликдан

қанчалик тозаланса, илм янада мұкаммал бўлади ва нур таратади.

* * *

Бажарганингда қалбингда ҳузур-ҳаловат, ором ва таскинлик пайдо бўладиган амал савобли ишдир.

* * *

Кимнинг қалбини Аллоҳ имон билан мунаvvар қилса, маърифати қувватли бўлади ва қалби истиқоматга (яъни, сўзи ва амали бир бўлишга) етади.

* * *

Қуръон кўп қирралидир. Унда панд-насиҳат, тарғиб (яхши ишларга ундаш), тарҳиб (ёмон ишлар оқибатидан огоҳлантириш), неъматлар зикри, мукофот ва жазонинг сифати, яхшилик ваъдаси, жазо таҳдиidi, хушхабар, эслатма бор. Оқил булар-

нинг бари ҳақида фикр юритиб, мағзини чақиб мутолаа қиласди.

* * *

Ҳикматнинг уч даражаси бор: тажриба кўплигидан туғилувчи ҳикмат – бу кишининг дунёсини ислоҳ этишга далолат қилиб, (яъни, дунёвий билимлар) ҳикматнинг энг қуи даражаси. Муомаланинг соғлигидан туғиладиган ҳикмат – бу охиратга далолат қиласди. Аллоҳга яқин бўлиш ва мушоҳададан пайдо бўлган ҳикмат – бу ҳақиқат ва Ҳаққа далолат қиласди.

* * *

Аллома “Аллоҳ”, “маърифат”, “илм”, “ҳикмат” атамаларини ёнма-ён қўллайди ва шу асосда “Аллоҳ таолони чуқур билим ва ҳикмат билан таниш” шиорини илгари суради.

Фойдаланилган адабиётлар

1. *Абулҳасан Али ибн Усмон ибн Абу Али Жуллобий Ҳужвирий Газнавий*. Кашф ал-маҳжуб. Исъад Абдулходий Қандийл тадқиқи. – Искандарийя: Мажлис ал-аъло лил шуъуун ал-исламий. 1974. II.
2. *Абдулмуҳсин Ҳусайн*. Ал-маърифа ъинда ал-Ҳаким ат-Термизий. – Қоҳира: Дор ал-котиб ал-арабий, 1950.
3. *Ал-Ҳаким ат-Термизий*. Хатм ал-авлиё. Будувву шаън. Усмон Яҳё нашрга тайёрлаган. – Байрут: Алматбаъа ал-косуликийя, 1965.
4. *Фариидиддин Аттор*. Тазкират ул-авлиё. – Техрон: “Беҳзод”, 1375/1997.

5. *Абдулфаттоҳ Абдуллоҳ Барака.* Ал-Ҳаким ат-Термизий ва назариятиху фи-л-валоя. – Қоҳира: Мажмаъ ал-буҳус ал-исламийя, 1971.
6. *Аҳмад Абдурасҳим Сойиҳ.* Ал-Ҳаким ат-Термизий ва масодириху минас Сунна. – Қоҳира: “Дор ас-салом”, 1988.
7. *Важиҳ Аҳмад Абдуллоҳ.* Ал-Ҳаким ат-Термизий ва иттижаҳат аз-завқийя. – Искандария: Дор ал-маърифа ал-жамиъийя, 1989.
8. *Убайдулла Уватов.* Ал-Ҳаким ат-Термизий. – Т.: “Маънавият”, 2001.
9. *Убайдулла Уватов.* Иброҳим Усмонов. Термизлик икки аллома. – Тошкент: Тошкент ислом университети, 2017.

10. *Иброҳим Усмонов*. “Наводир ал-усул” ҳикматлари. – Т.: “Фан”, 2009.
11. Мұхаммад Ҳаким Термизий ри-солалари (Будувву шаън, Адаб ан-нафс, Риёзатун нафс, Баён ал-касб). Ж. Чұтматов таржимаси. – Т.: “Movarounnahr”, 2017.
12. *Холид Заҳрий*. Шайх ва файласуф: қироату фил мадийнатил фозила байнал Ҳакиймит Термизий вал Форобий // Les maîtres soufis et leurs disciples des IIIe-Ve siècles de l'hégire (IXe-XIe). Enseignement, formation et transmission. Coordonné par Geneviève Gobillot et Jean-Jacques Thibon. – Damasc-Beyrouth, 2012. 161–221-б.

- 13. Аҳмад Ройсуний.* Мадхол ила мақосид аш-шарийъа. – Қоҳира: Дор ал-калима, 1431/2010. Биринчи нашр.
- 14. Идрис Абдусалом Шоҳидий.* Ал-Ҳаким ат-Термизий ва мадрасатуху фи таҳлил ан-нафс ал-инсонийя”. Исдорот шабакатул улум ан-нафсийятил арабийя. 1/2013.

Imom Termiziy xalqaro
ilmiy-tadqiqot markazi

Buyuk termiziylar

Hakim Termiziy

2



Toshkent – 2021

UO‘K 28(09)

KBK 86.38

U-14

[U. Uvatov] J. Cho‘tmatov.

Hakim Termiziy. – [Matn]: ma’naviy-ma’rifiy

[U. Uvatov] J. Cho‘tmatov. – T.: “Shamsuddinxon Boboxonov”, 2021. – 104 bet.

Mas’ul muharrir:

[U. Uvatov] – tarix fanlari doktori, professor

Taqrizchi:

Sh. Umarov – Tarix fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD),

Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi direktori

Ushbu risolada buyuk vatandoshimiz, mashhur mutasavvif olim, muhaddis va hofiz imom Hakim Termiziy haqida qimmatli ma’lumotlar to’plangan. Risola muktab o‘quvchilari va keng kitobxonlar ommasiga mo’ljallangan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hu-zuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitaning 2020-yil 18-mart-dagi 2058-sonli xulosasi asosida nashrga tayyorlandi.

ISBN 978-9943-12-630-5

©**[U. Uvatov, J. Cho‘tmatov, 2021]**

© “Shamsuddinxon Boboxonov” NMIU, 2021

Mundarija

So‘zboshi	58
Hakim Termiziy	60
Allomaning ismi-sharifi	60
U zot kim bo‘lgan?	60
Qachon va qayerda tug‘ilgan?	61
Ota-onasi kim bo‘lgan?	61
Hakim Termiziyning yoshligi	63
Ilm yo‘lidagi safarlari	65
Hakim Termiziyning ustozlari	67
Hakim Termiziyning shogirdlari	68
Hakim Termiziyning asarlari	69
Hakim Termiziy asarlarining bosh g‘oyasi	77
Xulosa	88
Hakim Termiziy merosi va mustaqillik	90
Hakim Termiziy o‘gitlaridan namunalar	94
Foydalanilgan adabiyotlar	99

So‘zboshi

Ma'lumki, tarixda Movarounnahr deb atalgan o'lkamiz olim-u fozillar yurtidir. Bunga tarixiy manbalardagi tegishli qaydlardan tashqari, yurtimizdagi minglab qo‘lyozmalar ham bevosita dalil bo‘la oladi. Mana shu olimlar orasida termiziy allomalar ham o‘z o‘rniga ega.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘rta asr arab va fors tilidagi tarixiy manbalarda qayd etilgan Termiziy nisbasidagi olimlar soni 200 nafarga yetadi. Kelajakdagi izlanishlar bu raqamni yanada ko‘paytirishi ham mumkin.

Ushbu termiziy allomalar, xoh diniy, xoh dunyoviy bo‘lsin, ilm-fanning turli sohalarida ilmiy faoliyat olib borganlar.

Ular diniy ilmlar sohasida tafsir, hadis, fiqh, ya’ni Islom huquqiy me’yorlari, tasavvuf kabi yo‘nalishlarda, dunyoviy bilimlar borasida esa astronomiya, matematika, tabobat, zoologiya, adabiyot kabi sohalarda peshqadam bo‘lishgan. Bu olimlar nafaqat Termizda, balki o‘sha davr Islom olamida ilmiy markaz sanalgan ko‘plab shaharlarda faoliyat yuritganlarini ta’kidlash lozim.

Bular orasida Islom dini asoslarini chuqur anglab, din va dunyo bilimlarini uyg‘unlashtirgan holda ulug‘ donishmandlik – hikmat ilmida peshvolikka yetishgan va “Hakim” nomi bilan tanilgan Muhammad Hakim Termiziy alohida o‘rin tutadi.

*Islom dini rivojiga ulkan hissa
qo'shgan buyuk alloma, vatandoshimiz
Abu Iso Termiziy va Termiziy alloma-
larning benazir merosini ilmiy asosda
chuqur o'rganish va xalqqa yetkazish
o'ta muhim ishdir.*

Shavkat Mirziyoyev,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Hakim Termiziy
(820–932)

Allomaning Ismi-sharifi – Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali ibn Hasan ibn Bishr ibn Horun Hakim Termiziyidir.

U zot kim bo'lgan? Mashhur tasavvuf olimi, shayx, muhaddis, hofiz, imom va hakim bo'lib, aqida, tafsir, hadis va tasavvuf haqida ko'plab asarlar yozgan yetuk alloma.

Qachon va qayerda tug‘ilgan? Hakim Termiziyning tavalludi va vafot etgan sanasi xususida manba va ababiyotlarda aniq ma’lumot keltirilmagan. Ammo alloma hayoti va uning ta’limotini chuqur o‘rgangan olimlar Hakim Termiziy 820-yilda Termiz shahrida tavallud topgani, uzoq umr ko‘rib, 932-yilda 112 yoshida vafot etgani haqidada xulosa qiladilar. Uning maqbarasi Termiz shahri yaqinidagi Amudaryo bo‘yida joylashgan.

Ota-onasi kim bo‘lgan? Muhammad Hakim Termiziyning otasi Ali ibn Hasan ibn Bishr Termiziy o‘z davrida hadis ilmining ko‘zga ko‘ringan olimlaridan biri bo‘lgan. U olim sifatida Balx, Bag‘dod, Kufa, Basra, Makka va Madina kabi shaharlarda faoliyat yuritgan.

Hakim Termiziy “Al-radd ’alal muattila” (“Muattila oqimiga raddiya”) kitobida onasidan hadis rivoyat qiladi. Ona tarafidan bo‘lgan bobosi ham hadis roviylaridan – uni naql etuvchi olimlardan edi.

Bu ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, Hakim Termiziy ilm va ma’rifatli xonadonda voyaga yetdi va bu uning kela-jakda katta olim bo‘lishiga mustahkam asos bo‘ldi.

Allomaning o‘z tarjimai holiga oid “Buduvvu sha’n Abu Abdulloh Muhammad Hakim Termiziy“ nomli asari va boshqa manbalardan ma’lum bo‘lishicha, u zot soliha ayol bilan tur-mush qurgan va olti nafar farzandi bo‘lgan.

Hakim Termiziyning yoshligi. Yoshligida vaqtdan unumli foydalanib, behuda mashg‘ulotlardan chetlangani u zotning buyuk inson bo‘lib yetishishida juda muhim o‘rin tutgan. Buni allomanning quyidagi so‘zlaridan bilish mumkin:

“Ishimning boshlanishida ismi barokatli Alloh taolo men uchun shayximni (ustozimni Alloh u zotni rahmat qilsin) hozir qildi. Sakkiz yoshga yetganimda, u zot meni ilm o‘rganishga undadi, unga qiziqtirdi va buni men uchun og‘irlilikda ham, yengillikda ham (ya’ni, har qanday holatda) odatga aylantirdi. Hatto, bu men uchun doimiy odatga – yoshlik vaqtimda o‘yin-kulgining o‘rnini bosuvchi ishga aylandi. Shu tufayli men yoshligimdan ilm al-osor (hadis ilmi)

va ilm ar-ray (shariat qonun-qoidalari-ga oid ilm)ni egallahsga erishdim”.

Keyinchalik ilm yo‘lida safarga chiqishni niyat qilgan yosh Muhammad ma’lum vaqt bunga imkon topa olmaydi, ammo o‘zining yuksak odob-axloqi, insoniy fazilatlari natijasida ulug‘ darajaga erishadi. Fariduddin Attor “Tazkerrat ul-avliyo” asarida Hakim Termiziy haqida shunday hikoya qiladi: «Darhaqiqat, Shayx Termiziy umrining avvalida ikki sherigi hamrohligida ilm talabida safarga chiqishni niyat qildi. Shu asnoda onasi kasal bo‘ldi va unga dedi: “Ey o‘g‘ilcham, men bir zaifa ayolman. Sendan boshqa qarovchim ham, yordamchim ham yo‘q. Agar ketadigan bo‘lsang, unda meni kimga topshi-

rasan?” Bu so‘zlar unga ta’sir qildi va safardan qoldi. Uning ikki sherigi esa yo‘lga chiqib, safarga ketishdi».

Ilm yo‘lidagi safarlari. Hakim Termiziy 27 yoshga yetganda ilm yo‘lida safarga chiqish imkonи tug‘iladi va bu haqda allomaning o‘zi shunday yoza-di: “Qachonki yoshim yigirma yetti yoki shunga yaqinlashganda ko‘nglimga Allohning Baytul Haromiga borish ishtiyoqi tushdi. Vaqtি kelib, men uchun safar qilish imkonи paydo bo‘ldi. So‘ng hadis ilmi talabida Iroq-da turdim, undagi Basra shahriga bordim. So‘ng rajab oyida Makkaga yo‘l oldim. Sha’bon oyidan ma’lum vaqt o‘tgach, Makkaga yetib keldim. Alloh haj vaqtigacha unda turishimni nasib

etdi. Tun-u kun multazam² yonida men uchun duo eshigini ochdi. Qalbimga haqqi-roṣt tavba qilish va katta-yu ki-chik ayb-u gunohlarni tark etish istagi tushdi. Haj ham qildim. So‘ng qaytdim, darhaqiqat, qalbim neligin ang-lagan edim”.

Uning bu muqaddas shaharga safari Basra va Bag‘dod orqali bo‘lib, yo‘l davomida muhaddis olimlardan hadislar eshitadi va eshitgan hadislarini yodlab, yozib boradi, ilmiy majlis va munozaralarda ham ishtirok etadi. Alloma dunyoqarashi shakllanishida ona shahri Termiz bilan bir qatorda, Balx, Marv, Nishopur, Basra, Kufa, Bag‘dod,

² U Ka’bai sharifning hajarul asvat bilan eshigi o’rtasidagi joy bo‘lib, duo qilinadigan xos o’rinlardan biridir.

Makka va Madina shaharlari ham muhim o‘rin tutgan.

Hakim Termiziyning ustozlari.

Hakim Termiziyning ilmga bo‘lgan qiziqishida birinchi ustoz – otasi Ali ibn Hasanning xizmatlari benihoya katta bo‘lgan. Alloma Termizdagi yetuk olimlardan tafsir, hadis va fiqh ilmlaridan saboq oladi. U o‘zining eng yirik asari bo‘lgan va bir yarim mingdan ortiq rivoyatlarni jamlagan “Navodir al-usul fiy ma’rifati ahadiys ar-Rasul” (“Payg‘ambar hadislarini anglashning nodir usullari”) kitobida 206 hadisni otasi Ali ibn Hasan Termiziyyadan rivotat qilgani diqqatga sazovordir. Yuqorida keltirilganidek, uning onasi ham ilk ustozlaridan bo‘lgan.

Muhammad Hakim Termiziy Abu Turob Naxshabiy, Ahmad ibn Xizravayh Balxiy, Yahyo ibn Muoz Roziy kabi tasavvuf namoyandalaridan, Qu-tayba ibn Said Balxiy, Solih ibn Abdulloh Termiziy, Solih ibn Muhammad Termiziy, Jorud ibn Muoz Termiziy, Sufyon ibn Vakiy Kufiy, Ali ibn Hujr Marvaziy, Rizqulloh ibn Musa Bag‘dodiy, Abdulvoris ibn Abdusamad Basriy, Muhammad ibn Abdulloh Makkiy va boshqa ikki yuzdan ortiq olimlardan ilm o‘rgangan va ulardan hadis rivoyat qilgan.

Hakim Termiziyning shogirdlari. Allomaning Abu Muhammad Yahyo ibn Mansur Qoziy Nishopuriy, Abu Mansur Ali ibn Abdulloh ibn Xolid Zuhliy Hiraviy, Hasan ibn Ali Juzjoniy,

Ahmad ibn Muhammad ibn Iso, Abu Bakr Muhammad ibn Umar Hakim Varroq Termiziy (vaf. 320/932) kabi shogirdlari bo‘lgan.

Hakim Termiziyning asarlari. Hakim Termiziyyidan boy ilmiy-ma’naviy meros qolgan. Uning asarlarining soni 70–80 ta deb ko‘rsatiladi. E’tiborli jihat shundaki, ularning aksari bizgacha yetib kelgan va doimiy tarzda o‘rganilib, nashr etilmoqda. Bu asarlar arab tilida yozilgan.

Allomaning qo‘lyozma asarlari O‘zbekiston musulmonlari idorasining kutubxonasi, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti va jahoning yirik shaharlaridagi qo‘lyozmalar xazinalari, jumladan, Fransiya, Buyuk Britaniya, Misr, Suriya, Liviya, Tur-

kiya va boshqa shu kabi davlatlardagi
qo‘lyozma fondlarida ham saqlanadi.

Hakim Termiziyning asarlaridan qu-
yidagilarni keltirish mumkin:

1. Tafsir. Qur’oni karimning Fotiha
va Baqara surasining ayrim oyatla-
ri tafsiriga bag‘ishlangan tugallan-
magan asar.
2. “Navodir al-usul fiy ma’rifati aha-
diys ar-Rasul” (“Payg‘ambar xabar-
larini bilishda nodir usullar”).
3. “Al-manhiyot” (“Qaytarilgan amal-
lar”).
4. “Al-amsol minal kitab vas sunna”
 (“Qur’on va sunnatdagi masalalar
kitobi”).
5. “Tahsilu nazoir al-Qur’an” (“Qur’-
ondagi o‘xshash kalimalarni o‘rga-
nish”).

6. “Al-haj va asroruhu” (“Haj va uning sirlari”).
7. “Kitab as-solat va maqosidiha” (“Namoz va uning maqsadlari haqidada kitob”).
8. “Sabab at-takbir fis solat” (“Namozda takbir aytish sabablari”).
9. “Al-masail al-afina” (“Noo‘rin masalalar”).
10. “Ar-radd ’alar rofiza” (“Rofiziy firqasiga raddiya”).
11. “Ar-radd ’alal muattila” (“Muattila firqasiga raddiya”).
12. “Al-farq baynal ayat val karomat” (“Mo‘jiza va karomat o‘rtasidagi farq”).
13. “Sharh qavl val iman val islam val ihsan” (“Imon, islom va ehson masalalari”).

- 14.“Al-kalam ala ma’na la ilaha illaloh” (“Laa ilaha illalloh kalimasi-ning ma’nosi haqida so‘z”).
- 15.“Kitab al-akyas val mug‘tarriyn”. (“Ziyraklar va aldanganlar haqida kitob”).
- 16.“Al-aql val hava” (“Aql va havoyi nafs”).
- 17.“Isbat al-ilal fil amr van-nahy” (“Shariatdagi buyruq va qaytariqlar-ning tub mazmun-mohiyati”).
- 18.“Bayon al-ilm” (“Ilm bayoni”).
- 19.“Kitab al-huquq” (“Haqlar haqida kitob”).
- 20.“Bayon al-kasb” (“Kasblar bayo- ni”).
- 21.“Javob al-masoil allati sa’alahu ahlu Saraxs anha” (“Saraxs ahli so‘ragan masalalarga javoblar”).

22. “G‘avr al-umur” (“Ishlarning mohiyati”).
23. “Al-furuq va man’ at-taroduf” (“Farqlar va mutarodif (sinonimiya bo‘lishni man qilish”).
24. “Anva’ al-ma’orif” (“Ilm-fan turлari”).
25. “Tarix al-mashoyix” (“Mashoyixlar tarixi”).
26. “Buduvvu sha’n Abu Abdulloh Muhammad al-Hakim at-Termiziy” (“Abu Abdulloh Muhammad Hakim Termiziy faoliyatining boshlanishi”).
27. “Adab an-nafs” (“Nafs odobi”).
28. “Riyozatu-n-nafs” (“Nafs riyozati”).
29. “Makr an-nafs” (“Nafs makri”).
30. “Risolatu kayfiyyatis suluk ila Robbil ’alamin” (“Olamlar Rabbisiga

- olib boradigan yo‘lning qandayligi haqida risola”).
- 31.“Kitab sifatil qulub va ahvaliha va hay’ati tarkibiha” (“Qalblarning sifati, holati va tarkibiy tuzilishi haqidagi kitob”).
 - 32.“Xatm al-avliyo” (“Avliyolik cho‘qqisi”).
 - 33.“Bayon al-farq bayn as-sadr val qalb val fuad val lubb” (“Ko‘ks, qalb, fuad va lubb orasidagi farq bayoni”).
 - 34.“Ma’rifat ul-asror” (“Sirlar ma’rifati”).
 - 35.“Manozil al-ibod minal ibada” (“Mo‘minlarning ibodatdagi darajalari”).
 - 36.“Al-masail al-maknuna” (“Yashirin masalalar”).

- 37.“Adab al-muridiyn” (“Muridlar odobi”).
38. “Ilm al-avliyo” (“Valiylar ilmi”).
- 39.“Abvab muxtalifa” (“Har xil mavzular”).
- 40.“Al-jumal al-lazim ma’rifatuha” (“Bilish lozim jumlalar”).
- 41.“Javob kitab minar Ra’y” (“Ray shahridan kelgan maktubga javob”).
- 42.“Al-hikma minal ilm al-batin” (“Botin ilmidan hikmatlar”).
- 43.“Sifat ul-qulub va ahvoliha” (“Qalblar xususiyati va holatlari”).
- 44.“Urs al-muvahhidin” (“Yakka Xudoga e’tiqod qilganlar zavqi”).
- 45.“Urs al-orifiyn” (“Oriflar zavqi”).
- 46.“Kitab al-a’zo van nafs” (“A’zolar va nafs haqida kitob”).

- 47.“Masoil at-ta’bir” (“Ta’bir masalalari”).
- 48.“Daqoiq al-ulum” (“Ilmlarning nozik nuqtalari”).

Ta’kidlash lozimki, yuqoridagi asarlarning ayrimlari Qohira, Bayrut, Iskandariya kabi shaharlarda arab tilida nashr etilgan, ayrimlari esa turli tillarga tarjima qilingan.

Hakim Termiziy asarlarining bosh g‘oyasi. Hakim Termiziy asarlarining bosh g‘oyasi Islom dinining asl mazmun-mohiyatini anglash va uni insonlarga to‘g‘ri asosda yetkazishdir. Bu masalada esa alloma bir qator ilmiy asoslangan muhim g‘oyalarni ilgari surgan. Allomaning tadqiqicha, Alloh insonni yer yuzida mavjud jonzotlarning eng ulug‘i qilib yaratgan ekan, u mana shu darajaga munosib bo‘lishi lozim. Buning uchun esa, u, avvalo, o‘zini, ya’ni o‘zining ichki va tashqi dunyosini chuqur anglab yetmog‘i kerak. Islom dinining asosiy manbalari bo‘lgan Qur’on va hadislarni qunt bilan o‘rganish hamda bu ikki manbaga tayangan holda boshqa ilmlarni yaxshi o‘zlashtirish orqali bunga erishish mumkin.

Kishining o‘zini anglashi mazmu-ni shundaki, insonning ichki dunyosi to‘rt qismdan iborat: qalb, aql, nafs va ruh (ruhiy holat). Ma’naviy kamolot yo‘lidagi eng katta to‘siq – insonning o‘z nafsidir. U insonni havoyi, ya’ni behuda xohish-istaklar va man qilin-gan ishlar sari buradi, ezgulik yo‘lidan to‘sib, uni tubanlikka tortadi. Agar uni tarbiya qilish uchun chora ko‘rilmash ekan, u kishini alaloqibat turli falokat-larga yo‘liqtirib, halokatga uchratadi. Shuning uchun u qalb va aql yordamida tarbiya qilinishi lozim. Bu masalada esa alloma insonni butun boshli mam-lakatga qiyoslaydi. Unda bir-biri bilan kurash olib boruvchi qarama-qarshi tomonlar mavjud: bir tarafda havo, shahvat (havoyi xohish-istaklar), kibr,

ochko‘zlik kabi kuchlarga ega nafs, boshqa tomonda aql, ilm, ma’rifat, hifz (yod olish qobiliyati), fahm, sakinat (xotirjamlik) kabi kuchlarga ega qalb turadi. Bu kurashda qaysi taraf yengib chiqsa, “inson mamlakati” va uning taxtiga egalik qiladi hamda inson ruhiyati g‘olib keladi. Inson esa o‘z “mamlakati”ga nafs hukmron bo‘lib olishiga yo‘l qo‘ymasligi lozimdir. Hakim Termiziy o‘z asarlarida bu kurashdagi g‘alaba yo‘llarini, mag‘lubiyat sabablarini chuqur tahlil etgan va inson ilm-ma’rifat yordamida qaytarzda bosqichma-bosqich kamolotga erishishini birma-bir bayon etgan.

Hakim Termiziy Islom tarixida birinchilardan bo‘lib ma’rifat – bilish nazariyasiga asos solgan. Kishining bilish

yo‘lida o‘zidagi qalb, nafs, aql, ruh, zehn, fahm-farosat, hifz (yodda tutish) kabi omillardan qay tarzda foydalani-shi mumkinligi masalalarini bundan o‘n ikki asr ilgari batafsil yoritgan. Misrlik Abdulmuhsin Husayniy bundan 70 yil muqaddam, ya’ni 1950-yilda nashr etil-gan “Al-Ma’rifa inda al-Hakim at-Termiziy” (“Hakim Termiziy nazdida ma’-rifat”) nomli mashhur tadqiqotini ushbu masalaga bag‘ishlagan.

Hakim Termiziyning ko‘plab asarlarini arab tilida nashrga tayyorlab chop etirgan tadqiqotchi Ahmad Abdurahim Soyihning e’tirof etishicha, bu zot is-lom psixologiyasi yo‘nalishining asos-chisidir. Ayni damda bu fikrni iskan-dariyalik olim Vajih Ahmad Abdulloham qo‘llab-quvvatlagan. Marokashlik

tadqiqotchi Idris Abdussalom Shohidiyning bildirishicha, Hakim Termiziyning bugungi zamonaviy psixologik bilimlar tizimidagi o‘rni va asoschi ekanini baholash – soha tadqiqotchilar oldida turgan muhim vazifadir.

Islom tarixida valiylik – avliyolik nazariyasi va amaliyotini ilk bor tizimli tarzda tadqiq etib, ko‘rsatib bergen zot ham aynan Hakim Termiziydir. Uning ko‘plab asarlarida bu mavzu keng yoritilganidan tashqari, “Xatm al-avliyo” (“Valiylar cho‘qqisi”) kitobida komil inson – avliyolik masalasi chuqur tahlil etilgan. Unda nafaqat avliyolik darajasiga yetishish, balki uning eng quyi darajasidan eng yuqori darajasigacha bo‘lgan yo‘li, ularning komil shaxs sifatida jamiyat-

dagi o‘rni ko‘rsatib berilgan. Alloma-ning qarashlarida yuksak darajadagi valiyilar o‘z jamiyatlarida tom ma’no-dagi yetakchilik xususiyatlariga ega bo‘luvchi, uning taraqqiyotiga tengsiz hissa qo‘shuvchi ilm-ma’rifatli serqir-ra shaxslar sifatida talqin etilgan. Misrlik olim Abdulfattoh Abdulloh Baraka o‘z tadqiqotida Hakim Termiziyning valiylik nazariyasi asoschisi ekanini dunyo ilmiy jamoatchiligiga asoslab berdi. Yana bir misrlik tad-qiqotchi Muhammad Juyushiyning fikricha, Hakim Termiziydan so‘ng bugungi kungacha kim valiylik ha-qida yozgan yoki gapirgan bo‘lsa, qay darajada bo‘lsa ham, uning qarashlari ta’sirida bo‘lgan.

Hakim Termiziy yana bir muhim ilmiy yo‘nalish – shariat hukmlari hikmati va ulardan ko‘zlangan maqsadni ifoda etuvchi “maqosid ash-shariy’ a” (“shariat ahkomlaridan ko‘zlangan maqsadlar”) yo‘nalishining ham asoschisidir. O‘tgan asrda qaytadan shaklantirilgan bu yo‘nalish bugungi kunda Islom dinining asl mohiyatini tushunish masalasida ham dolzarb sanalmoqda. Ushbu yo‘nalishni tadqiq etgan, hozirda Butun dunyo musulmon ulamolari kengashi raisi Ahmad Roysuniy ham asarlari va ma’ruzalarida Hakim Termiziyning bu sohada asoschi ekanini qayd etdi. Chunki allomaning barcha asarlarida bu yo‘nalish o‘z ifodasini topgani barobarida, uning alohida kitoblari ham aynan shu masalaga bag‘ishlan-

gan. Hakim Termiziy o‘zining “Al-qavl ’ala ma’na laa ilaha illalloh” (“Laa ilaha illalloh” ma’nosи haqida so‘z”), “As-solatu va maqosiduha” (“Namoz va uning maqsadlari”), “As-Savm va asroruhi” (“Ro‘za va uning sirlari”), “Al-Haj va asroruhi” (“Haj va uning sirlari”) kabi asarlarida shariat ahkom-larining asosiy maqsad va hikmatlarini yoritgan. Ushbu asarlar Islom dinining asl mazmun-mohiyatini keng ommaga yengil va ravon tarzda tushuntirib berishda muhim o‘rin tutadi.

Marokashlik olim va shayx Xolid Zahriyga ko‘ra, Hakim Termiziy inson tahlili masalasida uni ramziy ma’noda “shahar” sifatida va undan ham yuksalib, “mamlakat” tarzida o‘rganish ham-

da alohida qismlarini tahlil etish darajasiga yetgan.

Hakim Termiziy o‘z davridagi adashgan botil firqalarga yozma tarzda asosli raddiya berish yo‘nalishida yurtimizda aniqlangan eng qadimiy asarlar mualifi hamdir. Allomaning bizgacha yetib kelgan “Ar-radd ’alal muattila” (“Muattila – jahmiylar toifasiga raddiya”) va “Ar-radd ’alar rofiza” (“Rofiziy – shialarga raddiya”) kabi asarlari bu sohaga maxsus bag‘ishlangan manbalardir. Boshqa asarlarida ham Termiziy firqalarga raddiyalar berib, eng muhim jihat – firqalanish kelib chiqishining tub asoslarini anglash masalasida fikrlarini bayon qilgan.

Hakim Termiziyning Qur’oni karim tafsiriga bag‘ishlangan asari ham

bo‘lib, garchi olimning vafoti sabab bilan yakuniga yetmagan bo‘lsa-da, u yurtimiz miqyosida hozirgacha aniqlangan eng qadimgi yozma tafsir sifatida ham e’tiborga molikdir.

Alloma o‘z avtobiografik asarida ma’lum vaqt tabobat bilan shug‘ullan-ganini qayd etib o‘tgan. Boshqa bir o‘rinda esa, bunday deydi: “So‘ng-ra ushbu yillarning birida zavol ishini o‘lhash, burjlarning ishlaridan bo‘lgan bu hisob-kitoblarni o‘rganish va usturlob bilan mashg‘ul bo‘ldim. Men bu sohalarga chuqur hafsala bilan kиrishdim”. Serqirra mutafakkir Hakim Termiziyni dunyoviy ilmlarda psixologiya, tabobat, sotsiologiya (jamiyatshunoslik), estetika, axloqshunoslik va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarda

buyuk alloma sifatida, diniy ilmlarda mufassir, muhaddis, faqih, Kalom ilmi olimi, tasavvuf olimi va murshidi sifatida baholash mumkin. Mana shu tarzdagi keng qamrovli qarashlari, tahlillari natijasi o‘laroq, Hakim Termiziy tarixda islomiy yo‘nalishda “Hakim”, ya’ni “Donishmand” nomi bilan tanilgan yagona shaxsdir. Hatto, bu unvon allomaning ismidan ham ustun kelib, u “Hakim Termiziy” nomi bilan mashhur bo‘lishiga sabab bo‘lgan.

Xulosa

Alloma qaysi sohada ijod qilmasin, o'sha sohaning tub mazmun-mohiyatiga yetib borish uchun masalaning asosiy jihatlari bilan birga, bir qarashda arzimasdek ko'ringan, ammo juda muhim ahamiyat kasb etuvchi eng nozik nuqtalarigacha ahamiyat berar edi. Zero, biz atrofimizdagи har bir ish behuda emasligini va har bir narsa behikmat yaratilmaganini bilib turamiz. Lekin ularning mohiyatini, nima uchun shundayligini oxirigacha anglab yeta olmaymiz. Hakim Termiziy har bir narsani – xoh u ilm bo'lsin, xoh Alloh tao-loning bandalari uchun yaratib qo'ygan ne'matlari bo'lsin, xoh shar'iy hukmlar bo'lsin, barchasida ilohiy kuch-qudrat va teran hikmat mavjudligini ko'rsatib,

bizni o‘rab turgan dunyoning sir-u asrorlarini teran anglab, boshqalarga ham anglatar edi. Shuning uchun ulug‘ alлома “Hakim”, ya’ни “Mohiyatni anglashga intilgan donishmand zot” degan sharafli nomga musharraf bo‘lgan. Hujviriyning keltirishicha, uni Termizda “Muhammad Hakim” deb chaqirishlariiga sabab, u zot hakimiyya tariqatiga asos solgani bo‘lgan. Bu esa yurtimizda bizga ma’lum tariqatlarning eng qadimiysidir.

Hakim Termiziy merosi va mustaqillik. Mustaqillikdan so‘ng respublikamizda milliy qadriyatlarimiz, muqaddas dinimizga oid an’analarning qayta tiklanishi xalqimiz ma’naviy-ma’rifiy yuksalishida muhim omillardan biriga aylandi. Mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq milliy o‘zlikni anglash, ma’naviy merosni o‘rganish, tadqiq etish, o‘tmishda yashab o‘tgan mutafakkir, allomalarining ilmiy-falsafiy, diniy-axloqiy qarashlaridan ommani baramand etish g‘oyasi hayotiy zaruratga aylandi.

Mustaqillik yillarida Hakim Termiziyning hayoti va ilmiy merosini o‘rganish borasida bir qancha ishlar amalga oshirildi. Jumladan, U. Uvatov, I. Usmonov, O. Qoriyev, M. Ismoilov, T. Annayev,

Z. Choriyev, J. Mirzayev, A. Shoshiy, J. Cho‘tmatovlarning bu boradagi xizmatlarini alohida e’tirof etish mumkin.

U.Uvatovning “Al-Hakim at-Termiziy” (2001), “Ikki buyuk donishmand” (2005), Mirzo Kenjabekning “Termiz tazkirasi” (2001, 2017), J. Mirzayevning “Muhammad al-Hakim at-Termiziy hayoti va ijodi”, I. Usmonovning “Navodir al-usul” hikmatlari”, J. Cho‘tmatovning “Termizning bezavol qal’alari yoxud Termiz tarixi”, “Muhammad Hakim Termiziy risolalari” kabi kitoblarida alloma hayoti va ijodiga oid muhim tadqiqotlar amalga oshirildi. Hakim Termiziy asarlarini arab tilidan o‘zbek tiliga o‘girish ishlari ham boshlandi. A. Shoshiyning “Manozil ul-ibod min al-iboda” (2003), I. Usmonovning

“Navodir al-usul” (Asardan parchalar) (2007), R. Abdullayevning “Buduvvu sha’n Abi Abdulloh” (2001–2002) kabi risolalari Hakim Termiziyning ilmiy-ma’rifiy durdonalarini dunyoviy va diniy bisotini o’rganish borasida dastlabki muhim bosqich bo’ldi.

Shuningdek, Hakim Termiziyning “Al-haj va asroruhu”, “Ma’rifat ul-asror”, “Al-akyas val-mug’tarriyn”, “Adab an-nafs”, “Riyozatun-nafs”, “Bayon al-kasb”, “Masoil ahli Saraxs”, “Al-masoil al-maknuna” kabi asarlarining o’zbek tiliga tarjima qilinishi alloma ijodining yuqori darajada tadqiq etilayotganining yaqqol isboti bo’ldi.

Alloma hayoti va ilmiy merosini xorijda Abdulmuhsin Husayniy, Artur Jon Arberri, Nikolas Hir, Abdulfattoh

Abdulloh Baraka, Bernd Radtke, Ay-yub Palmer, Sayyid Jumayliy, Ahmad Abdurrohman Soyih, Usmon Ismoil Yahyo, Muhammad Ibrohim Juyushiy, Solih Chift va boshqa ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilib, maxsus risolalar yozildi hamda ilmiy-tadqiqotlar olib borildi.

Hakim Termiziy o‘gitlaridan namunalar

Dunyoning amiri – inson, insonning amiri – qalb, qalbning amiri – ma’rifat, ma’rifatning amiri – Xudoni tanituvchi ilmdir.

* * *

Kim nafsi tarbiya qilsa, nafs o‘z yomon xulqlaridan tiyiladigan bo‘ladi va unday kishini Parvardigori yordam va madad berishi bilan qo‘llaydi. O‘shanda uning ilmi nurli, zulmatlarni yorituvchi bo‘ladi.

* * *

Kim Allohnini yaxshi ko‘rsa, barcha uni yaxshi ko‘radi.

* * *

Hikmat – ilmning ichki tarafi (ya’ni, mag‘zi) va har bir narsani o‘z o‘rniga qo‘yishdir.

* * *

Jaholat nafs xususiyati bo‘lib, u zulmatdir. Tanaga nafsning shahvat va lazzatlari o‘rnashsa, qalb zulmatda qoladi.

* * *

Nafs shaytonning quroolidir. Shayton nafs orqali bandani aldaydi, vasvasa qiladi va havoyi istaklarni insonga qarshi ishlatadi.

* * *

Kibrning asli – qilgan ishini katta va yuksak baholab, chiroyli bajardim deb bilishdir. Uning ishi Haq va Uning ahlidan o‘zini katta olishdir.

* * *

Ma'rifat bilan Allohnini tanish qalbni nurga to'ldiradi. Bu nur esa nafsning olovini kuydiradi. Iztirobga tushgan inson faqat ma'rifat bilan sokin bo'ladi. Qalbda ma'rifat qancha ko'p bo'lsa, nafs ham shuncha sokin bo'ladi.

* * *

Kim Alloh taolonining ulug'ligini bilsa, o'zining kamchiliklarini his qiladi. Insonning umidsizlikka tushishi ham Allohnini bilmaganidandir.

* * *

Ilm – nurdir. Insonlar Alloh taolo oldida qanchalik mas'uliyatni his etsa, shunchalik ma'rifatga ega bo'ladi. Inson qalbi yovuzlikdan qanchalik tozalansa, ilm yanada mukammal bo'ladi va nur taratadi.

* * *

Bajarganingda qalbingda huzur-halovat, orom va taskinlik paydo bo‘ladi-gan amal savobli ishdir.

* * *

Kimning qalbini Alloh imon bilan munavvar qilsa, ma’rifati quvvatli bo‘ladi va qalbi istiqomatga (ya’ni, so‘zi va amali bir bo‘lishga) yetadi.

* * *

Qur’on ko‘p qirralidir. Unda pand-nasihat, targ‘ib (yaxshi ishlarga undash), tarhib (yomon ishlar oqibatidan ogohlantirish), ne’matlar zikri, mukofot va jazoning sifati, yaxshilik va’dasi, jazo tahdidi, xushxabar, eslatma bor. Oqil bularning bari haqida fikr yuritib, mag‘zini chaqib mutolaa qiladi.

* * *

Hikmatning uch darajasi bor: tajriba mo‘lligidan tug‘iluvchi hikmat – bu kishining dunyosini isloh etishga dalolat qilib, (ya’ni, dunyoviy bilimlar) hikmatning eng quyi darajasi. Muromalaning sofligidan tug‘iladigan hikmat – bu oxiratga dalolat qiladi. Allohga yaqin bo‘lish va mushohadadan tug‘iladigan hikmat – bu haqiqat va Haqqa dalolat qiladi.

* * *

Alloma “Alloh”, “ma’rifat”, “ilm”, “hikmat” atamalarini yonma-yon qo‘l-laydi va shu asosda: “Alloh taoloni chuqur bilim va hikmat bilan tanish” shiorini ustuvorlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *Abulhasan Ali ibn Usmon ibn Abu Ali Jullobiy Hujviriyy G‘aznaviy.* Kashf al-mahjub. Is’ad Abdulhodiy Qandiyl tadqiqi. – Iskandariyya: Majlis al-a’lo lil shu’uun al-islamiy, 1974. II.
2. *Abdulmuhsin Husayniy.* Al-ma’rifa ’inda al-Hakim at-Termiziy. – Qohira: Dor al-kotib al-arabiyy, 1950.
3. *Al-Hakim at-Termiziy.* Xatm al-avliyo. Buduvvu sha’n. Usmon Yahyo nashrga tayyorlagan. – Bayrut: Al-matba’a al-kosulikiyya, 1965.
4. *Farididdin Attor.* Tazkiratul avliyo. – Tehron: “Behzod”, 1375/1997.
5. *Abdulfattoh Abdulloh Baraka.* Al-Hakim at-Termiziy va nazariyya-

- tuhu fil valoya. – Qohira: Majma' al-buhus al-islamiyya, 1971.
6. Ahmad Abdurahim Soyih. Al-Hakim at-Termiziy va masodiruhu minas Sunna. – Qohira: “Dor as-salom”, 1988.
 7. *Vajih Ahmad Abdulloh*. Al-Hakim at-Termiziy va ittijahat az-zavqiyya. – Iskandariyya: Dor al-ma’rifa al-jam'iyya, 1989.
 8. *Ubaydulla Uvatov*. Al-Hakim at-Termiziy. – T.: “Ma’naviyat”, 2001.
 9. *Ubaydulla Uvatov. Ibrohim Usmonov*. Termizlik ikki alloma. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2017.
 10. *Ibrohim Usmonov*. “Navodir al-usul” hikmatlari. – T.: “Fan”, 2009.
 11. Muhammad Hakim Termiziy risolalari (Buduvvu sha’n, Adab an-nafs, Riyozatun nafs, Bayon al-kasb).

- J. Cho‘tmatov tarjimasi. – T.: “Mavarounnahr”, 2017.
12. *Xolid Zahriy*. Shayx va faylasuf: qiroatu fil madiynatil fozila baynal Hakiy-mit Termiziy val Forobiy // Les maîtres soufis et leurs disciples des III^e-V^e siècles de l'hégire (IX^e-XI^e). Enseignement, formation et transmission. Coordonné par Geneviève Gobillot et Jean-Jacques Thibon. – Damass-Beyrouth, 2012. 161–221-b.
13. *Ahmad Roysuniy*. Madxol ila maqosid ash-shariy'a. – Qohira: Dor al-kalima, 1431/2010. Birinchi nashr.
14. *Idris Abdusalom Shohidiy*. Al-Hakim at-Termiziy va madrasatuhi fi tahlil an-nafs al-insoniyya". Isdorot shabakatu-l-ulum an-nafsiyyati-l-arabiyya, 1/2013.

QAYDLAR UCHUN

Ma'naviy-ma'rify nashr

Buyuk termiziylar

Hakim Termiziy

Muharrirlar: Bobomurod ERALI

Surayyo SALOHUDDINOVA

Nilufar ABDURAHMONOVA

Sahifalovchi: Komiljon MAHMUD

Dizayner: Ravshan MALIKOV

Musahhiha: Nilufar ABLAYEVA

Nashriyot litsenziya raqami:

4555-535f-1ecd-eb6a-8a83-0410-7703 2020-07-27

Bosishga 2021-yil 29-noyabrda ruxsat etildi.

Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi 60 x 84 ^{1/32}.

Harf garniturasi Times New Roman.

Offset bosma usuli.

Hisob-nashriyot t.: 1,37 Shartli b. t.: 3,02.

Adadi: 1000 nusxa. 63/4-son buyurtma.

Bahosi kelishilgan narxda.

O'zbekiston musulmonlari idorasiga qarashli

"Shamsuddinxon Boboxonov"

NMIU da tayyorlandi va chop etildi.

Toshkent shahri, Zarqaynar 18-berkko'cha 47a-uy.

Elektron pochta: m-nashr@mail.ru

Tel: (0-371) 227-34-30